



“BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO‘G‘RISI”DAGI QONUN

O‘RQ-139-son, 07.01.2008

Bola — 18 yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs hisoblanadi.




Qonunga ko'ra, bolalar bir nechta muhim huquqlarga ega.

Bola yashash huquqiga ega. Tug'ilganidan boshlab ismi, familiyasi va otasning ismiga, millati va fuqaroligiga ega bo'lishi kerak.



Bola erkin yashashi, uning tanasi va shaxsiy hayoti himoyalangan bo'lishi, uyiga ruxsatsiz kirilmasligi va xatlari hamda xabarlarini sir saqlanishi huquqiga ega.



Shuningdek, bilim olish huquqiga ega. U oilada yashash va tarbiya olish, ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning mehr-muhabbatidan foydalanish huquqiga ega.





Bola noqonuniy ko'chirilishi yoki chet elda majburan qoldirib ketilmasligi lozim. Oilada biror masala hal qilinayotganda o'z fikrini aytishi mumkin, zarur bo'lsa sudda ham gapirish huquqi bor.



Sog'lig'iga, tarbiyasi va ma'naviy ulg'ayishiga zarar bermaydigan ma'lumotlarni olish huquqiga ega.



U erkin o'ylashi, gapirishi, vijdoni va e'tiqodi bo'yicha yashash huquqiga ega. O'ziga tegishli buyumlari va mulki bo'lishi mumkin. Yashash uchun uy-joyga ega bo'lish huquqiga ega.



Katta bo'lganida ishlash, o'zi xohlagan kasbni tanlash va adolatli sharoitda mehnat qilish huquqi bor. Dam olish va bo'sh vaqtini o'ziga yoqqan ishlar bilan o'tkazish huquqiga ega. Sog'lig'ini asrash va davolanish huquqi ham bor.



Bundan tashqari, qonunda ijtimoiy himoyaga ya'ni yordamga muhtoj bolalar ham alohida himoya qilinishi va ularning huquqlari kafolatlaishi ham yozib qo'yilgan.